

О`G`IRLIK JINOYATINING MAXSUS PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHDA ISHTIROK ETUVCHI SUBYEKTLARNING FAOLIYAT TARTIBI

Mustafayeva Aziza Laziz qizi

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`g`irlik jinoyatining maxsus profilaktikasini tashkil etishda ishtirok etuvchi subyektlarning faoliyat tartibi, ularning o`rni haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so`zlar: og`irlik jinoyati, huquqbuzarliklar profilaktikasining maxsus profilaktikasi, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, giyohvandlik bilan bog`liq bo`lgan jinoyatlar, mulkiy turdagi jinoyatlar.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta`minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini har qanday tajovuzlardan himoya qilishdek yuksak maqsadlarga erishish uchun mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari tizimini chuqur isloh qilish bo`yicha keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi.

2014-yil 14-mayda O`zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida»gi qonunning qabul qilinishi bu borada olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mamlakatimiz sud-huquq, xususan, ichki ishlar organlari tizimida hamda fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatni boshqarishdagi faolligini oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida respublikada, uning eng olis va chekka qishloqlarida ham tarkibiy tuzilmalariga ega bo`lgan huquqbuzarliklarning oldini olishning yangi tizimi shakllandi hamda samarali faoliyat ko`rsatmoqda. Lekin shunga qaramasdan bugungi kunda ushbu tizimning imkoniyatlaridan samarali foydalanish xususida jumladan, ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati faoliyatida hali o`z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to`planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar ushbu vazifalarni samarali bajarishda to`siq bo`lmoqda. Xususan:

birinchidan, respublika, o`rta va quyi bo`g`indagi bo`linmalar o`rtasida asosiy vazifa va funksiyalar aniq taqsimlanmagani har bir xodimning faoliyati ustuvor yo`nalishlarini va ishning pirovard natijasi uchun shaxsiy javobgarligini belgilashni qiyinlashtirmoqda, islohotlardan keyin ham bu muammolar qisman yechimini topmagan;

ikkinchidan, quyi bo`linmalar zimmasiga haddan ziyod xizmat vazifalari yuklatilyapti;

uchinchidan, profilaktika inspektori bilan o'zini o'zi boshqarish organlari yetarlicha hamkorlik olib borilmayapti;

to'rtinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari o'z vaqtida ko'rib chiqilmayapti, ularda ko'tarilayotgan masalalar har tomonlama chuqur tahlil qilinmayapti, murojaatlarga rasmiyatchilik uchungina javob berilayotgani fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarmoqda, ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va boshqa tashkilotlarga shikoyat bilan murojaat yetishga majbur qilmoqda;

beshinchidan, o'sib kelayotgan avlodni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishga, yoshlar jinoyiy faoliyatga, avvalambor, terrorizm va diniy ekstremizmga jalb etilishining oldini olishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti, ichki ishlar organlarining tarbiyaviy o'rni sezilmayapti;

oltinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim;

yettinchidan, eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimga joriy yetish, ichki ishlar organlarini zamonaviy vositalar va asbob-uskunalar bilan jihozlash darajasi qoniqarsizligicha qolmoqda.

Islohotlar natijasidan kelib chiqib, har payshanba "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" etib belgilanib, haftaning shu kunida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar qat'iy, aniq va tizimli ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Natijada jinoyatchilik kamaymoqda. Xususan o'tgan yilning 7 oy davomida shu davrga nisbatan jinoyat sodir etish holatlari 4600 taga kamaydi. Jumladan, qasddan odam o'ldirish 72 taga, qasddan og'ir tan jarohat yetkazish 75 taga, bosqinchilik 81 taga, bezorilik 401 taga kamaydi. Eng muhimi voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etish 12,8 %, ayollar jinoyatchiligi 3,84% kamayishiga erishildi.

Mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi bo'yicha jamoatchilik institutlari bilan birgalikda olib borilgan keng qamrovli profilaktik tadbirlar natijasida 1765 ta mahallalarda jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Jamoat joylarida o'rnatilgan 114 mingdan ortiq videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda Toshkent shahri, Andijon, Namangan, Farg'ona va Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida qariyb 10 mingga yaqin jinoyatlar fosh etildi.

Shu bilan birgalikda, tahlillar ayrim hududlarda ishlar xo'ja ko'rsinga, faqat qog'oz uchun bajarilayotganini, buning oqibatida vaziyat ijobiy tomonga o'zgarmayotganini ko'rsatmoqda.

Hamma joyda ham profilatik tadbirlar samaradorligi yetarli darajada ta'minlanayotgani yo'q. Davlatimiz rahbari IIV rahbariyati faqat sodir etilgan jinoyatlar va ularning ochilish darajasi haqida axborot berish bilan cheklanib

qolayotganini tanqidiy tahlil qilish, joylarda ichki ishlar organlari faoliyatini muntazam muvofiqlashtirib borish kabi masalalarga jiddiy e'tibor berilmayotganini ko'rsatib o'tdi.

Vazirlik tizimida yechimini kutayotgan boshqa muammolar ham yo'q emas. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ayrim hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarni barvaqt aniqlash ishlari qoniqarli emas. Shu bilan birga, ko'p bor ta'kidlanganiga qaramasdan, joylarda profilaktika masalasiga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Bu borada yana bir muhim masala huquqbuzarliklar va jinoyatchilikni oldini olish faqat ichki ishlar organlarining vazifasi degan eskicha qarashdan voz kechilmagani bilan bog'liqdir.

Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirish islohotlar davomiyligini talab qildi zero, zamon shiddat bilan o'zgarib shuni talab qilmoqda.

Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyati O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2017-yil 25-avgustdagi "Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i bilan aniq tartibga solingan bo'lib, unda quyidagicha bayon etilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi:

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir tasdiqlangan davlat dasturlari asosida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining (keyingi o'rinlarda vazirlik deb yuritiladi) idoraviy dasturini ishlab chiqish va amalga oshirilishini tashkillashtirish vazirlik tashkiliy-inspektorlik va axborot-tahlil bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi hamda prokuratura organlari huzurida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar bilan hamkorlik ta'minlanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir tasdiqlanadigan hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkillashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tashkiliy-inspektorlik boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi hamda prokuratura organlari huzurida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar bilan bu boradagi hamkorlik ta'minlanadi.

Vazirlikning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir idoraviy dasturi asosida vazirlik sohaviy xizmatlari o'z dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin.

Vazirlikning, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir idoraviy dasturi asosida sohaviy xizmatlar va tuman (shahar) ichki ishlar organlari o'z dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin.

Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini qabul qilingan davlat dasturlari, idoraviy va idoralararo ishlab chiqilgan kompleks va alohida dasturlar asosida o'tkazishi mumkin. Ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasi hududida barcha fuqarolar bilan qonun hujjatlariga muvofiq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shuningdek ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (immunitetga ega bo'lgan shaxslar bundan mustasno) bilan umumiy asoslarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi.

O'g'irlikning maxsus profilaktikasini amalga oshirish tartibi:

Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini mavsumiy yoki kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, respublika, mintaqa yoki tuman (shahar) miqyosida yoxud alohida kichik hududlar va obyektlarda amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari tomonidan ayrim turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus profilaktik tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi mumkin.

Maxsus profilaktik tadbirlar O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi rahbariyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlarining buyrug'i, farmoyishi hamda ko'rsatmasi asosida tashkil etiladi.

Ichki ishlar organlari maxsus tadbirlarni huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda ishlab chiqishi va amalga oshirishi, shuningdek bu jarayonga huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlar vakillarini taklif etishi mumkin.

Respublika miqyosida o'tkaziladigan maxsus profilaktik tadbirlar va o'g'irlik jinoyatining maxsus profilaktikasini tashkil etish ichki ishlar vazirining alohida buyrug'i, farmoyishi va ko'rsatmalari bilan amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish borasidagi maxsus profilaktik tadbirlar va o'g'irlik jinoyatining maxsus profilaktikasi ichki ishlar vazirligi huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi va uning joylardagi tizimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarini hamda uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo'yicha maxsus tadbirlar ichki ishlar

organlarining jazoni ijro etish bosh boshqarmasi va jazoni ijro etish muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari huzurida tashkil etilgan maxsus komissiyalar bilan hamkorlikda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, shuningdek bu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag'batlantirish yoki jazolash to'g'risida taqdimnoma va takliflar ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi, iste'mol qilinishi, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish hamda o'tkazishning oldini olish, axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktika tadbirlari ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi, patrul-post va jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari hamda tergov bo'linmalari tomonidan davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari, sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarning oldini olish, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni saqlash, tashish, o'tkazish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish xizmatlari tomonidan Davlat xavfsizlik xizmati bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'g'irlik jinoyatlarini tergov kilish metodikasi va ushbu jinoyatni keltirib chikaruvchi sabab va sharoitlarini aniklash va urganish buyicha uslubiy ko'llanma. IIV Akademiyasi. T-2012
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati.Darslik. IIV Akademiya.T- 2012
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi. Darslik. IIV Akademiya.
4. I.S.Jahongirov. Kriminologiya. Darslik. Maxsus qism.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T-2023-y. 13-moddalari.

6. O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qism T-2023 y
7. O‘zbekiston Respublikasi JPK Maxsus qism T 2023 y
8. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi T-2017 y
9. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda “Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslarga nisbatan II Oning ma‘muriy nazorati to‘g‘risida”gi qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda “Surunkali alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risida”gi qonuni.